

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.M.Tairov

Favqulodda vaziyatlarda xavflarni boshqarish sohasida ilmiy-metodik asoslarni takomillashtirish va boshqaruv mexanizmlarni muvofiqlashtirish6

KIMYO

X.N.Abdikunduzov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov

Mahalliy uzum navlarining urug'idan olingan moyning kimyoviy tarkibini tadqiq etish9

Z.A.Sulaymonova, B.B.Umarov, M.B.Navro'zova

Ferrosensaqlovchi kompleks birikmalar sintezi va iq spektroskopik tadqiqoti 14

I.R.Askarov, M.M. Anvarova

Chemical composition and medicinal properties of pumpkin seed and its importance in folk medicine20

R.S.Jo'raev

Benzol-1,2,4-triil tris(2-((dietilkarbamotioil)tio)atsetat) sintezi24

I.R.Askarov, N.Kh.Abdurakhimova

Determination of quality and quantity indicators of «Ayritosh» food supplement30

I.O'.Normurodov, A.U.Choriyev, O.O.Xudoyberdiyeva, A.K.Abdushukurov

2-izopropil-5-metilfenil 2-((dietilkarbamotioyel) tio) asetat sintezi.....34

I.Askarov, Kh.Isakov, S.Mukhammedov

Ecological and toxicological properties of the biologically active complex of furfurolidendiurea with zinc acetate38

H.I.Ahunova, A.I.Kulonov, V.A.Shavkat

Diterpene alkaloid from delphinium oreophilum and antioxidant activity41

BIOLOGIYA

B.A.Niyazmetov, V.Karimov, B.Zaripov

Thermogenic respiration in mitochondria of some animals.....45

I.I.Zokirov, Sh.X.Yusupova

Shimoliy Farg'ona hududi no'xat agrobiotsenozida uchrovchi to'g'riqanotli hasharotlar bioekologiyasi50

V.Mahmudov, A.V.Mahmudov

Сравнительный анализ малого жизненного цикла многолетних кормовых злаков на адырах Узбекистана.....54

B.M.Sheraliyev, D.I.Komilova, Y.Q.Qayumova, Sh.A.Xalimov

Farg'ona vodiysidan barbatula (*teleostei: nemacheilidae*) urug'iga mansub baliq turi qayd etildi58

S.A.Omonova, I.U.Maxammadrasulov

O'zbekiston vizildoq qo'ng'izlari (*coleoptera, carabidae*)ning taksonomik tahlili64

M.M.Mamajonova, V.Mahmudov

Farg'ona viloyati hududiga introduksiya qilingan dorivor o'simlik turlarini qish mavsumiga tayyorlash agrotexnikasi.....67

O.A.Turdiboyev, M.X.Akbarova

Lamiaceae oilasiga mansub taksonlarning morfologik belgilarining qiyosiy tavsii.....69

Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, M.F.Fakhrutdinova, O.N.Imomov

Tuproq sog'lomligi ko'rsatkichlari va ularning qo'llanishi.....74

Г.Н.Шакирова

Виды минеральных удобрений, применяемых в хлопководстве, и нормы внесения.....81

M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov

Ugam-chotqol milliy bog'ining tuproqlari va tuproq eroziyasi bo'yicha tadbirlar: muammolar va saqlash strategiyasi84

M.A.Muqimov

Dog'li yalangbaliq (*triplophysa strauchii*)ning farg'ona vodiysi sharoitida reproductiv xususiyatlari88

FARG'ONA VILOYATI HUDUDIGA INTRODUKSIYA QILINGAN DORIVOR O'SIMLIK TURLARINI QISH MAVSUMIGA TAYYORLASH AGROTEKNIKASI**АГРОТЕХНИКА ПОДГОТОВКИ К ЗИМНЕМУ СЕЗОНУ ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ ВИДОВ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ****AGROTECHNICS FOR THE PREPARATION OF ACCLIMATIZED MEDICINAL PLANT SPECIES FOR THE WINTER SEASON ON THE TERRITORY OF THE FERGANA REGION****Mamajonova Maxliyo Musinjon qizi¹**¹Farg'ona davlat universiteti magistranti**Mahmudov Valijon²**²Farg'ona davlat universiteti biologiya fanlari nomzodi, dotsent**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Farg'ona viloyati hududiga introduksiya qilingan dorivor o'simlik turlarini noqulay iqlim sharoitlariga tayyorlash agrotexnikasi haqida ilk ma'lumotlar keltirilmoqda. Unga ko'ra, ayrim istiqbolli dorivor o'simlik turlarini iqlimlashtirish bosqichlari aytib o'tilgan.

Аннотация

В данной статье представлены первые сведения об агротехнике, подготовки видов лекарственных растений к неблагоприятным климатическим условиям, интродуцированным на территорию Ферганской области. В этой статье отмечены этапы акклиматизации некоторых перспективных видов лекарственных растений.

Abstract

In this article, the first information about the agrotechnics of preparing introduced medicinal plant species for unfavorable climatic conditions is presented to the territory of the Fergana region. According to him, the stages of acclimatization of some promising medicinal plant species are mentioned.

Kalit so'zlar: Farg'ona viloyati, iqlim, introduksiya, dorivor o'simliklar**Ключевые слова:** Ферганская область, климат, интродукция, лекарственные растения**Key words:** Fergana region, climate, introduction, medicinal plants**KIRISH**

Ayni vaqtda aholi sonining ortib borishi bilan birgalikda tabiiy dori mahsulotlariga bo'lgan talab ham ko'payib bormoqda. Hozirda farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarilayotgan ko'plab dori mahsulotlari dorivor o'simliklar xomashyolaridan tayyorlanmoqda, bu esa o'z navbatida respublikamiz hududlarida dorivor o'simliklar plantatsiyalarini tashkil qilishni taqazo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.05.2022-yildagi PF-139-son "Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonida: dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, kasalliklarning oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash, dorivor o'simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish maqsadida: tumanlar za'faron, lavanda, steviya, kovul, ravoch, qalampir yalpiz, qizilmiya, na'matak va boshqa dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirish va 2022-yildan 2026-yilgacha 36000 ming gektar maydonda yangi dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etish nazarda tutilgan. Bu esa o'z navbatida mahalliy floramizdan tashqari chet el florasiga oid dorivor turlaridan foydalanish imkonini beradi. Farg'ona viloyati hududiga ko'plab dorivor o'simliklar iqlimlashtirilgan bo'lib, ulardan iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Xususan, viloyatning Uchko'prik tumanida tashkil qilingan "Mehrigiyo" xususiy firmasida dorivor o'simliklarning plantatsiyalari tashkil qilingan bo'lib, ulardan tayyorlangan dorivor mahsulotlar tibbiyotda ko'plab kasalliklarni davolashda foydalanilib kelinmoqda.

Hozirgi vaqtga kelib, introduksiya qilingan o'simliklardan ko'zlangan mahsulot olish uchun, o'simliklarni muhit sharoitlariga moslashishlarini nazorat qilish hamda noqulay iqlim ta'sirlaridan

himoya qilishga qaratilgan agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki so'nggi yillar davomida paydo bo'layotgan iqlim o'zgarishlari ushbu o'simlik turlariga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Tadqiqotning material medotikasi. Kuzatishlarimiz 2020-2023-yillar davomida Farg'ona viloyatiga introduksiya qilingan dorivor o'simliklarni ekologik sharoitlarga bo'lgan ta'sirini aniqlash bo'yicha tajriba ishlari olib borildi. O'simliklarning mavsumiy rivojlanish maromini o'rganishda I.V.Borisova(1972) va I.N.Beydemem(1974) usullaridan foydalanildi. Ekologik omillarni dorivor o'simlik turlariga ta'sirini o'rganishda I.V.Belolipov tomonidan ishlab chiqilgan metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston sharoitida qish mavsumi 90 kun davom etadi va taxminan 21-mart kunigacha sovuq iqlim sharoiti saqlanib turadi. Kuzatishlarimiz davomida so'nggi 2 yil davomida qish mavsumida sovuq haroratning ko'tarilishi ayrim dorivor o'simliklarning nobud bo'lishiga sabab bo'lishiga, bu esa o'simliklarni sovuq iqlim sharoitiga tayyorlash, ularni saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo qiladi. Olib borgan izlanishlarimiz davomida ayrim iqlimlashtirilgan dorivor o'simlik turlari qish mavsumiga chidamsiz turlar bo'lib, agar kerakli chora-tadbirlar qo'llanilmasa ularning plantatsiyalari nobud bo'lishi mumkin. Masalan, *Rosmarinus officinalis L.* - dorivor rozmarin, Lamiaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, vatani O'rta yer dengizi mamlakatlari hisoblanadi. Ushbu hududlardagi iqlim sharoiti yurtimiz sharoitiga qisman o'xshash bo'lib, farqli jihatlari ham yo'q emas. O'simlik introduksiyasiga oid daslabki ma'lumotlar S.Kudryashov ga tegishli bo'lib, uning istiqbolli tur ekanligini ta'kidlab o'tgan. Xususan, o'simlikning o'sishini Farg'ona sharoitida tekshirganimizda, o'simlikning jadal o'sishi mart oyining II o'n kunligidan mayning II o'n kunligiga to'g'ri keldi. Ushbu o'simlik birinchi yildan boshlab faqat shox chiqarib o'sdi, generativ organlari esa uchunchi yildan boshlab hosil bo'la boshladi. O'simlikning birinchi gullash fazasi iyun oyiga to'g'ri kelgan bo'lsa, ikkinchi gullash fazasi oktyabr-noyabr oylarida boshlandi. Lekin, qish mavsumining noqulay kelganligi sababli ochiq maydonlarda tashkil qilingan plantatsiyalarda o'simlik turlari nobud bo'ldi. Bundan tashqari, kuzatishlarimiz davomida *Olea europaea*, *Catharanthus roseus L.*, kabi turlar ham sovuq iqlim ta'siriga chidamsiz ekanliklari aniqlandi. Hozirda unga qarshi agrotexnik tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Asosan, ochiq maydonlarga ekilgan plantatsiyalarni himoya qilishda qator oralariga chirindi mahsulotlari bilan ishlov berish: torf bilan yoki maxsus chirindilar bilan, o'simlikning yuqori qismigacha tuproq tortish, bundan tashqari tez o'sadigan sovuqqa chidamli daraxt turlari bilan ixotalash ham yaxshi samara berishi aniqlanmoqda.

XULOSA

Kuzatilgan tajribadan ko'rinib turibdiki, introduksiya qilingan dorivor o'simliklarni to'liq o'rganish, ularni iqlim sharoitlariga ta'sirini aniqlash, ushbu turlardan ko'zlangan mahsulot olishga va turli maqsadlarda foydalanishga imkon beradi. Kelgusi tadqiqotlarimizda, Farg'ona viloyatiga iqlimlashtirilgan dorivor o'simlik turlarini ekologik omillarga ta'sirini o'rganish ishlari amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.05.2022-yildagi "Dorivor o'simliklar xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-139-sonli Farmoni.
2. Борисова, И.В. (1972). Сезонная динамика растительного сообщества [Сезонал динамисс оф тхе плант соммуниетй]. Полевая геоботаника. Ленинград: Наука.
3. Бейдеман, И.Н. (1974). Методика изучения фенологии растений и растителнйх сообществ [Метходолюй фор студийинг тхе пхенолюй оф плантс анд плант соммуниетйэс]. Новосибирск: Наука.
4. Белолипов И.В., (1989) Интрукция травянистйх растений природной флорй Средней Азии (Экологоинтрукционний анализ). ФАН. 152.
5. Belolipov I.V., Tukhtaev B.Yo., Qarshiboev H. Q., (2015). "Usimliklar introduksiyasi" fanidan ilmiy – tadqiqot ishlari utkazishga oid metodik kursatmalar, 2nd edition, Gulistan, 32 b.
6. Belolipov I.V., Qarshiboev H.Q., Islamov A.M. (2017) "Toshkent shahri sharoitida yovvoyi o'simliklarni introduksion o'rganishga oid metodik ko'rsatmalar", Gulistan, 11 b.
7. Nasriddinova M.R, Yoziyev L,X. *Rosmarinus officinalis L.*ni Qarshi vohasi sharoitiga introduksiya qilish istiqbollari. QDU 152-154 b